TOSHKENT 3026: O‘ZBEK INTERYER DIZAYNINING KELAJAK MODELI

Kamolov Sardor Sanjarovich
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti talabasi
Kamolovsardor234@gmail.com
Qodirova Sevdora Salimjon qizi
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti o‘qituvchisi
qodirovasevdora@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada globallashuv sharoitida interyer dizaynida milliy o‘ziga xoslikning yo‘qolib borishi muammosi tahlil qilinadi va unga javob sifatida «Toshkent 3026» deb nomlangan o‘zbek interyer dizaynining kelajak modeli taklif etiladi. Model spekulyativ dizayn metodi asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, o‘zbek me’morchiligi va amaliy san’atining madaniy arxetiplari (ganchkorlik, girih naqshi, yog‘och o‘ymakorligi, atlas va adras, mehmonxona va hovli) bilan kelajak texnologiyalari (nano-biopolimerlar, magnit levitatsiyasi, aqlli tekstil, sun’iy intellekt) sinteziga asoslangan «neo-sharq» dizayn tiliga tayanadi. Tadqiqot natijasida modelning uchta tamoyili (madaniy davomiylik, funksional bezak, ekologik barqarorlik) va beshta tarkibiy qismi — «jonli ganch», levitatsion xontahta, raqamli atlas, eko-hovli kapsulasi va girih yorug‘lik tizimi — ishlab chiqildi, ularning har biri bugungi ilmiy prototiplar bilan asoslandi.

Kalit so‘zlar: interyer dizayn, kelajak modeli, kvazikristall, o‘zbek interyeri, spekulyativ dizayn, neo-sharq uslubi, milliy o‘ziga xoslik, ganchkorlik, girih, aqlli materiallar, magnit levitatsiyasi, e-tekstil, yorug‘lik dizayni.

KIRISH. Bugungi kunda interyer dizayni sohasida jiddiy muammo kuzatilmoqda: globallashuv natijasida madaniy o‘ziga xoslik yo‘qolib, dunyoning turli shaharlaridagi zamonaviy binolar bir-biriga o‘xshash interyerga ega bo‘lib bormoqda. Ushbu tendensiya davom etsa, kelajakda milliy dizayn maktablari butunlay yo‘qolib ketishi xavfi mavjud. K. Frempton bu jarayonga qarshi «tanqidiy regionalizm» g‘oyasini ilgari surib, me’morchilik global texnologiyalarni mahalliy madaniyat bilan uyg‘unlashtirishi lozimligini ta’kidlagan[1]. O‘zbekiston Respublikasida ham milliy madaniy merosni asrash va uni zamonaviy hayotga tatbiq etish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan[2].

Kelajak shaharlari haqida so‘z borganda, ko‘pincha ilmiy-fantastik asarlarda tasvirlangan sovuq metall, shisha va neon chiroqlardan iborat G‘arb modelidagi muhit ko‘z oldimizga keladi. Biroq Toshkent shahrini 3026-yilda tasavvur qilganimizda, bunday begona muhit emas, balki o‘z madaniy ildizlariga tayangan kelajak interyeri gavdalanishi kerak. Ushbu maqolada taklif etilayotgan «Toshkent 3026» modeli shunchaki xayoliy fantastika emas, balki o‘zbek interyerining madaniy arxetiplari va uzoq kelajak texnologiyalarining muvozanatli sintezi asosida qurilgan yaxlit dizayn modelidir. Bu yerda «model» deganda kelajak o‘zbek uyi interyerini loyihalashning tamoyillari, tarkibiy qismlari va ular orasidagi bog‘liqlik tushuniladi. Buyuk Ipak yo‘li qadimda turli madaniyat va texnologiyalarni

[1] Frampton K. Towards a Critical Regionalism: Six Points for an Architecture of Resistance // The Anti-Aesthetic: Essays on Postmodern Culture / ed. by H. Foster. — Port Townsend: Bay Press, 1983. — P. 16–30.

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni. — URL: https://lex.uz

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

bog‘lagani kabi, bu model ham o‘tmish merosini kelajak innovatsiyalari bilan bog‘lovchi ko‘prik vazifasini bajaradi.

O‘zbek me’morchiligi va amaliy san’ati — ganchkorlik, girih naqshlari, yog‘och o‘ymakorligi, Marg‘ilon atlas va adraslari — boy geometrik va kompozitsion merosga ega[3]. Xususan, girih naqshlarining matematik aniqligi shu darajadaki, zamonaviy fan ularda kvazikristall tuzilmalarga yaqin geometriyani aniqlagan (1-rasm). Kvazikristall — tartibli, lekin takrorlanmaydigan tuzilma. Fan uni 1982-yilda kashf etgan. O‘rta asr Sharq ustalari esa girih naqshlarida bunday geometriyani XV asrdayoq qo‘llagan (2-rasm). Bu milliy naqshlarimizning matematik jihatdan qanchalik chuqur ekanini ko‘rsatadi Aynan shu matematik asos ushbu naqshlarni kelajak texnologiyalari bilan uyg‘unlashtirish imkonini beradi.



1-rasm

[3] Пугаченкова Г.А., Рempель Л.И. История искусств Узбекистана с древнейших времён до середины XIX века. — М.: Искусство, 1965. Рempель Л.И. Архитектурный орнамент Узбекистана. История развития и теория построения. — Ташкент: Гос. изд-во худож. лит-ры УзССР, 1961. Булатов М.С. Геометрическая гармонизация в архитектуре Средней Азии IX–XV вв. — 2-е изд. — М.: Наука, 1988.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.



2-rasm

Sharq falsafasi, milliy me’morchilik va uy-joy madaniyatini kelajak texnologiyalari davriga moslashtirgan holda o‘zbek interyer dizaynining kelajak modelini ishlab chiqish. Bu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar qo‘yildi: modelning dizayn tili («neo-sharq» uslubi) va tamoyillarini aniqlash, an’anaviy interyer elementlarining kelajakdagi talqinini ishlab chiqish, har bir yechimni bugungi ilmiy prototiplar bilan asoslash.

Spekulyativ dizayn metodi bu: kelajakni bashorat qilish emas, balki mumkin bo‘lgan kelajak ssenariylarini loyihalash orqali bugungi qadriyatlar haqida munozara uyg‘otishga qaratilgan[4]. Shuningdek, quyidagi metodlardan foydalanildi:

– milliy me’morchilik va amaliy san’at manbalarini tarixiy-qiyosiy tahlil qilish;

– aqlli materiallar va texnologiyalar bo‘yicha ilmiy adabiyotlarni tizimli o‘rganish;

– an’anaviy interyer elementlarini kelajak texnologiyalari bilan moslashtirish (mapping) — har bir madaniy arxetip uchun texnologik analog va funksiyani aniqlash;

– grafik modellashtirish — konseptual sxema, rejaviy yechim, girih naqshli yorug‘lik paneli va yorug‘lik ssenariysini ishlab chiqish.

Modelning umumiy tuzilishi 3-rasmda keltirilgan: milliy meros va kelajak texnologiyalari «neo-sharq» dizayn tilida birlashib, kelajak interyerining beshta tarkibiy qismini hosil qiladi.

«Toshkent 3026» — o‘zbek interyer dizayni kelajak modelining tuzilishi.

[4] Dunne A., Raby F. Speculative Everything: Design, Fiction, and Social Dreaming. — Cambridge (MA): MIT Press, 2013.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.



3-rasm

Tadqiqot natijasida modelning uchta asosiy tamoyili aniqlanadi:

– madaniy davomiylik — har bir yangi yechim an’anaviy o‘zbek interyeri elementidan (ganch, girih, atlas, xontahta, hovli) kelib chiqadi va uning ma’nosini saqlaydi;

– funksional bezak — naqsh va bezak faqat ko‘rkam emas, balki havoni tozalash, yoritish, energiya o‘tkazish kabi amaliy vazifani ham bajaradi;

– ekologik barqarorlik — qayta ishlanadigan, tabiatga zarar yetkazmaydigan materiallar va sun’iy intellekt boshqaradigan mikroiqlim.

Modelning beshta tarkibiy qismi mavjud. Ganch naqshlari aqlli nano-materialdan tayyorlanib, havoni tozalaydi va tunda yorug‘lik beradi. Xontahta o‘rnini magnit kuchi bilan havoda turadigan mebel egallaydi, pardalardagi atlas va adras naqshlari esa harakatlanib, o‘zgarib turadi. Xona markazidagi «eko-hovli» kapsulasi va vertikal bog‘lar hovli vazifasini bajaradi. Devordagi girih naqshlari esa uyni yorug‘lik va energiya bilan ta’minlovchi aqlli tizimga aylanadi.

XULOSA

«Toshkent 3026» modeli o‘zbek interyer dizayni kelajagiga yangicha qarashni taklif etadi va bu sohaga gumanistik hamda madaniy ruh olib kiradi. Tadqiqot natijalari quyidagi xulosalarni chiqarish imkonini beradi:

– kelajak interyeri faqat robotlar va «sovuq» texnologiyalardan iborat bo‘lishi shart emas — nanotexnologiyalar orqali qayta tug‘ilgan milliy o‘zlik uning markaziy g‘oyasiga aylanishi mumkin;

– ganch, girih, atlas va adras, mehmonxona va hovli kabi madaniy arxetiplar «neo-sharq» dizayn tilida bezakdan funksional tizimga — havoni tozalovchi, yorituvchi va energiya o‘tkazuvchi elementga aylanadi;

– modelning beshta tarkibiy qismi bugungi aqlli materiallar, e-tekstil, moslashuvchan arxitektura va ekologik dizayn sohasidagi ilmiy yutuqlarga tayanadi;

– model kelajak avlod dizaynerlari uchun o‘tmish merosini kelajak innovatsiyalari bilan bog‘lash bo‘yicha metodik qo‘llanma va ta’lim jarayonida spekulyativ loyihalash topshiriqlari uchun namuna bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Kelajak o‘tmishni inkor etmaydi, balki uni ulug‘laydi. Interyer dizaynerining vazifasi — texnologik inqilob asrida ham inson o‘z uyini, oilasini va madaniy ildizlarini his qilib turishini ta’minlashdir.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni. — URL: https://lex.uz
2. Bulatov S.S. Naqqoshlik. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2010.
3. Bulatov S.S., Ashurova M.O. Amaliy san’at qisqacha lug‘ati. — Toshkent: Qomuslar bosh tahririyati, 1992.
4. Xolmatov B.Q. Naqqoshlik. — Toshkent: Iqtisod-moliya, 2007.
5. Nozilov D.A. O‘rta Osiyo dizayni tarixidan. — Toshkent: O‘zbekiston, 1998.
6. Frampton K. Towards a Critical Regionalism: Six Points for an Architecture of Resistance // The Anti-Aesthetic: Essays on Postmodern Culture / ed. by H. Foster. — Port Townsend: Bay Press, 1983. — P. 16–30.
7. Gibson W. Neuromancer. — New York: Ace Books, 1984.
8. Пугаченкова Г.А., Рempель Л.И. История искусств Узбекистана с древнейших времён до середины XIX века. — М.: Искусство, 1965.
9. Рempель Л.И. Архитектурный орнамент Узбекистана. История развития и теория построения. — Ташкент: Гос. изд-во худож. лит-ры УзССР, 1961.
10. Булатов М.С. Геометрическая гармонизация в архитектуре Средней Азии IX–XV вв. — 2-е изд. — М.: Наука, 1988.
11. Lu P.J., Steinhardt P.J. Decagonal and quasi-crystalline tilings in medieval Islamic architecture // Science. — 2007. — Vol. 315, No. 5815. — P. 1106–1110.
12. Ritter A. Smart Materials in Architecture, Interior Architecture and Design. — Basel: Birkhäuser, 2007.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.